



QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY ASOSLARI

To‘raev Tolib – Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi tayanch doktoranti

shoxujaeva@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari o‘rganildi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish masalalari tahlil qilindi. Asosiy e‘tibor yuqori qiymatli mahsulot yetishtirish, agrotexnologiyalardan samarali foydalanish, qayta ishlash darajasini oshirish, raqamli agrobiznes modellarini joriy etish va sifat standartlariga muvofiq mahsulot yetishtirishga qaratiladi. Shuningdek, bozor infratuzilmasini yaxshilash, fermer va klaster sub‘ektlarini moliyalashtirish, agroeksportni qo‘llab-quvvatlash hamda kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan takliflar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Raqobat, qishloq xo‘jaligi, raqobatbardoshlikni qo‘llab-quvvatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligi, bozor mexanizmi, raqobatga bardosh bera olish qobiliyati, mahsulot o‘rnini bosuvchi yangi mahsulotlarning paydo bo‘lishi, agrar sohada davlat siyosati

Ma‘lumki, bozorda faoliyat yurituvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar foyda olish maqsadida ma‘lum resurslarni (moddiy, mehnat, moliyaviy, nomoddiy) qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlarni yaratadilar va ularni iste‘molchilarga taklif etadilar. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, biror-bir turdagi mahsulotni ishlab chiqaruvchilar soni ortib borar ekan, ular o‘rtasida xaridorlar uchun kurash vujudga keladi, ya‘ni raqobat muhiti shakllanadi.

“Raqobat” tushunchasiga ta‘rif berishda N.Y.Chetirkina¹ quyidagi yondashuvlarni alohida e‘tiborga olish maqsadga muvofiq ekanligini ta‘kidlaydi:

1. Raqobat bu bozordagi qandaydir harakatdir. Bunday yondashuv asosida eng yaxshi natijalarga erishish uchun musobaqalashish g‘oyasi yotadi.

2. Raqobat talab va taklifning qat‘iy muvozanatlashuvini ta‘minlovchi bozor mexanizmining elementidir.

¹ Четыркина Н.Ю. Управление конкурентоспособностью организаций сферы услуг. – СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2009.–128 с.



Bu yondashuv klassik iqtisodiyot nazariyasiga taalluqlidir.

3. Raqobat bahoni shakllantiruvchi asosiy iqtisodiy mezonlardan biridir. Bunday yondashuv raqobatni bozorning ajralmas xususiyatlaridan biri sifatida qarashga asoslanadi.

A.Smit² tomonidan raqobatga bozordagi subyektlar o'rtasida mahsulotlarni sotish va sotib olishda qulay sharoitlar uchun halol kurash sifatida qaralgan bo'lsa, D. Rikardo tomonidan raqobat asosida bozorda bahoni tartibga solish g'oyasi rivojlantirilib, tabiiy baholarning markazlashmagan boshqaruv tamoyili bilan hamohanglikda bozordagi uzoq muddatli muvozanatni, pirovard natijada iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlashi ilmiy asoslab berilgan³.

M.Porterning⁴ fikriga ko'ra raqobat tushunchasini ochib berishda har qanday tarmoqning tarkibiy tuzilishi va undagi o'zgarish jarayonlarini chuqur bilishga asoslanmoq kerak. U raqobat muhitini belgilovchi kuchlarni besh guruhga ajratadi, ya'ni yangi raqobatchilarning paydo bo'lish tahdidi; mahsulot o'rnini bosuvchi yangi mahsulotlarning paydo bo'lish tahdidi; mahsulot va xizmatlarni yetkazib beruvchilarning nimaga qodirligi; iste'molchilarning munosabati va imkoniyatlari; mavjud raqobatchilarning o'zaro musobaqalashuvi.

K. R. Makkonnell va S. L. Bryu⁵ "Raqobat bu bozorda ko'p sonli mustaqil sotuvchilar va xaridorlarning mavjudligi bo'lib, sotuvchilar va xaridorlar uchun bozorga erkin kirish va uni tark etish imkoniyatidir" deb ta'rif beradilar.

R.A.Fatxutdinov raqobatdoshlikka – obyektning bozordagi o'xshash obyektlarga nisbatan raqobatga bardosh bera olish qobiliyati sifatida ta'rif berilib, mahsulot yoki xizmatlar muayyan bozorda raqobatlasha oladigan yoki olmaydigan bo'lishi mumkin⁶. Shuningdek, raqobatdoshlik mahsulot yoki xizmatlarni boshqalardan iste'molchilarning talablarini qondirish xususiyatlari, xarid va foydalanish xarajatlari bo'yicha farqini aniqlovchi iste'mol xususiyatlari majmui sifatida ham ta'riflanishi mumkin.

Iqtisodchi olimlardan L.I.Abalkin, A.G.Gryaznova, A.Bolobolov va V.Sidorenko, A.I.Kovtun, A.Dubrova va N.Shiyanlar, agrar soha vakillari qishloq xo'jalik mahsulotlari raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash va agrar sohani rivojlantirish tamoyillarini belgilashda turlicha yondashadilar. Biz agrar iqtisodchi

² Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народа. Петрозаводск: Петроком, 1993.

³ Воронов Д.С. Оценка, анализ и выявление путей повышения конкурентоспособности предприятий. Дисс. канд.экон. наук. Екатеринбург – 2002.

⁴ Портер М. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей и конкурентов / М. Портер. – М. : Альпина БизнесБукс, 2005.

⁵ Макконел К. Р., Брю С. Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 т. – М.: Республика, 1993.

⁶ Фатхутдинов Р.А., Конкурентоспособность; экономика, стратегия, управление. - М.: ИНФРА-М, 2000

olimlar nuqtai nazarini ko‘rsatib o‘tilgan tamoyillarga nisbatan ajratib chiqamiz va quyidagilarga ega bo‘lamiz:

- tizimlilik va majmuaviylik, ya‘ni davlatning ta‘sir ko‘rsatishi qishloq xo‘jaligi faoliyatining barcha tarmoqlarini qamrab olgan holda tizimlilik xarakterga ega bo‘lishi zarur;

- maqsadlarni ham va tartibga keltirib turish siyosatini ham amalga oshirish mexanizmlarini belgilashda inson va ayniqsa, dehqonning ustunligi;

- agrar siyosatning realligini ta‘minlash uchun siyosiy yechimlar qabul qilish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishning borishida, shuningdek ularni amalga oshirish natijalarida fanga tayanish.

N.Xorunje⁷ning fikriga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlash va agrar sohani rivojlantirishning asosiga “qishloq xo‘jaligi islohotlari jarayonlari boshqaruvining uzluksizligi va kompleksliligi tamoyili qo‘yilishi zarurki, undan kelib chiqqan holda agrosanoat majmuasida qoloqlik va krizis holatlarni bartaraf etishning yagona yo‘li orqali agrar siyosatga shu kunlarda qonunchilik hujjatlarida qabul qilib bo‘lingan, birinchi darajali ahamiyat kasb etuvchi maqom berilishi, tegishli bosh hujjatlarni ishlab chiqish va ularning bajarilishi bo‘yicha tegishli ishlarni tashkillashtirishga erishish mumkindir”.

Bizning fikrimizga ko‘ra, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganlarni to‘ldirgan holda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlashda fermer va dehqon xo‘jaliklari mahsulotlarini barqaror rivojlantirishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo‘lishi zarur:

- Ustuvorlik tamoyili– mamlakat taraqqiyotining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini belgilab olishni bildiradi, ularni yechishda davlat kuchlarni jamlashi, xususan agrar sektorni iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilab olishga qaratishi lozim bo‘ladi. Agrar proteksionizm – agrar sektorning manfaatlarini mamlakat ichkarisida ham, xorijda ham faol himoyalashni nazarda tutadi;

- Tizimlilik–bunda davlatning ta‘siri tizimli xarakterga ega bo‘lishi zarur, komplekslilik esa – davlat agrar sektorni qo‘llab-quvvatlovchi o‘z ixtiyorida bor bo‘lgan barcha usul va vositalaridan foydalanish zaruratidir;

- Bashoratlash – tartibga soluvchi regulyatorlik faoliyatining davlat siyosatiga, shuningdek regulyatorlik hujjatlari loyihalarini tayyorlash bo‘yicha rejalarga mos kelishligini bildiradi, bu esa xo‘jalik yuritish subyektlariga o‘z faoliyatlarini rejalashtirishga imkon beradi. Shaffoflik–qonunchilik va boshqa

⁷ Хорунжий М.И. Agrarная политика: Учеб. пособие. / М.И. Хорунжий - М.: Финансы, 1998. - 240 с.

regulyatorlik hujjatlar, ularning bajarilish tartiblari, bajarilishini ta'minlovchi tegishli organlar ishi haqidagi to'liq ma'lumotlarning mavjudligi va umumfoydalanilish mumkinligini ko'zda tutadi;

- Ketma-ketlik tamoyili–regulyator hujjatlarning davlat regulyatorlik siyosatining asosiy qonunlari va qoidalari, boshqa qabul qilingan tegishli qonunchilik va regulyatorlik hujjatlari bilan mos kelishini ko'zda tutadi. Haqqoniylik–xo'jalik yuritish faoliyatidagi barcha subyektlarning teng huquqliligi ta'minlanishini bildiradi;

- Tushunarlik–bunda regulyatorlik hujjatlari mazmuni bo'yicha sodda bo'lishi zarur, ikki ma'noli talqinga yo'l qo'yiluvchi holat va qoidalar bo'lmasligi talab etiladi. Samaradorlik tamoyili –regulyatorlik hujjatidan bo'ladigan naf, foyda yoki manfaatlar tahlilidan iborat bo'lib, uning tadqiq etilishida, xo'jalik yuritish subyektlari faoliyati, fuqarolar va davlat tomonidan sarflangan mablag'larning asoslanganligi va mazkur regulyator hujjati qo'yilgan maqsadga erishishda mumkin bo'lgan boshqa muqobillaridan eng samaralisi ekanligini inobatga olinadi;


- Ekologik maqsadga muvofiqlik, davlat regulyatorlik siyosatining ekologik o'lchamini bildiradi, ya'ni davlat regulyatorlik siyosatini amalga oshiruvchilari ekologik toza bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni rag'batlantirishdan iborat bo'lishi lozim;

- barcha xo'jalik yurituvchi mulkchilik shakllarining tengligi;

- ekologik va ijtimoiy maqsadlarning birgalikdagi faoliyati, ya'ni hamohangligi.

Keyingi yillarda zamonaviy qishloq xo'jaligining barpo bo'lishida va rivojlanishida davlatning tartibga solib turish rolining tendensiyasi yetarlicha aniq namoyon bo'lib bormoqda (1- rasm).

Bu o'ziga xos spetsifik nomonopol va himoyalangan tarmoqdir, uning aholi farovonligi va mamlakatning oziq-ovqat havfsizligini ta'minlashdagi o'ziga xos alohida muhim vazifasini hisobga olgan holda xo'jalik yurituvchi subyektlar raqobatbardoshligining har tomonlama o'ylab ko'rilgan tartibga soluvchi regulyatorlar tizimi talab etiladi.



1 -rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish regulyatorlari (tartibga soluvchilar) tizimi⁸

Bizning fikrimizcha, ko'rsatib o'tilgan tartibga soluvchi regulyatorlar tizimi vositalar (mablag'lar), usullar va bozor qonunlari, tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar mahsulotlari rivojlanishini davlat va nodavlat qo'llab-quvvatlanishlar barchasi birikishga asoslanishi zarur. U qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan.

Bizningcha, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash orqali bozor mexanizmining davlat va nodavlat regulyatorlarining ta'sir ko'rsatishi natijasida, u xo'jalik yuritish subyektlarining daromad keltiruvchi o'z faoliyatlaridan barqaror natijalarga ega bo'lishlarini va raqobatli pozitsiyalarni yaxshilash uchun maqbul muhit yaratishni nazarda tutadi. Nodavlat tartibga solib turish va bozor talablari asosidagi o'zini-o'zi tartibga solishning bir vaqtda amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan usullarning ratsional birikish muammosini ilgari suradi.

⁸ Manba: muallif tomonidan tizimlashtirilgan

Uning yechimining asosi – o‘zini-o‘zi tashkillashtirish qonunlariga asosan kelib chiquvchi zamonaviy bozor iqtisodiyotidagi murakkab jarayon sifatida davlat va bozorning o‘zaro munosabatlarini tushunish hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligini mahsulotlari raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlash tamoyillari davlat tomonidan o‘z iqtisodiy siyosatini ma‘lum bir usullar yordamida olib borishida bajariladigan funksiyalarni amalga oshirishning muayyan mexanizmlarida o‘z aksini topadi. Bunga ko‘ra davlat quyidagi asosiy funksiyalarni bajarishi lozim:

- davlat barcha xo‘jalik yurituvchi mulkchilik shakllari uchun bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslarini ishlab chiqishi;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun davlat yuqori darajadagi bandlik va narxlar tengligini qo‘llab-quvvatlashi;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining daromadlarini davlatga haqqoniy, ya‘ni adolatli taqsimlashi, bozor iqtisodiyotida resurslarning samarali joylashuvi.

Bizning fikrimizga ko‘ra bugungi kunda davlatning regulyatorlik ta‘siri mamlakat qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga bir tomondan yetarlicha ahamiyatli desak, boshqa bir tomondan esa – yetarlicha samarali emasligini ko‘rsatmoqda. Biz tomonimizdan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlashning turlari va uslublari bir butun tizim shaklida taqdim etilgan (1-jadval).

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlash muammolariga oid olimlarning qarashlarini tahlil qilganimizda biz tomonimizdan uning turlari va uslublari belgilab olindi.

Tadqiqotlarimizga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni quyidagicha ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtiruvchi xo‘jaliklarning rivojlanishida tarmoqni tartibga solish bo‘yicha ma‘muriy va rejaviy chora-tadbirlarini qabul qilinishini o‘z ichiga oluvchi davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘siri;
- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatish – narx-navo, moliya-kredit, soliq va investitsiyaviy mexanizmlar.

Agrar sohadagi iqtisodiy jarayonlar bozor sharoitidagi xo‘jalik yuritish tizimini o‘zlashtirish davrida shunday narx siyosatini obyektiv tarzda shakllantirilishini talab etadiki, bunda u agrosanoat majmusini qayta ishlashi uchun zarur bo‘lgan moddiy-pul ta‘minotini, xomashyo ishlab chiqarishni, mahsulotni qayta ishlash va sotishni, xizmat ko‘rsatish va daromadlarni shakllantirish bosqichidagi almashinuv ekvivalentligini ta‘minlab borishi zarur. Demak, olib

borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi daromadlarini qo'llab quvvatlashda eng asosiy muhim richag – bu narxlar hisoblanadi.

Narxlar o'zgarishi bir qator narx belgilovchi omillar natijasida sodir bo'ladi. Binobarin, ishlab chiqarishda eng muhimi jamoatchilik narxi, talab va taklifning o'zaro muvozanati, inflyatsiya sur'ati va pulning xarid qobiliyati, narxlarning davlat ma'muriy va iqtisodiy tartibga solish darajasi hamda bahoga oid va oid bo'lmagan raqobatlarining holati, ishlab chiqarishning monopol darajasi shular jumlasidan hisoblanadi.

1-jadval

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash
turlari va uslublari⁹**

Turlari	Uslublari
Huquqiy ta'minlash	1. Qonunchilik hujjatlarini qabul qilish. 2. Amaldagi qonunchilik hujjatlarining sifatini yaxshilash. 3. Bir-biriga zid kelmaydigan bir butun o'zaro bog'liq meyoriy-huquqiy hujjatlarning tizimini yaratish.
Mahsulot ishlab chiqaruvchilar daromadining barqarorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash	1. Mahsulot ishlab chiqaruvchilar va oldi-sotdini amalga oshiruvchilarni kvotalash. 2. Dotatsiyalar va kompensatsiyalar. 3. Kafolatlangan minimal narx. Garov narxlarini kiritish. 4. Imtiyozli, ilmiy-asoslangan kreditlash va soliqqa tortish. 5. Sug'urtalash. 6. Davlat va hududiy fondlarda oziq-ovqatlar sotib olish. 7. Aholining barqaror to'lashga qodir ehtiyojini quvvatlash. 8. Horijiy raqobatchilar aralashuvidan himoyalash. 9. Kreditlarning davlat kafolati.
Infratuzilmaviy ta'minot	1. ASM korxonalarini ishining barqarorligini oshirish manfaatida ishlaydigan infratuzilmalar yaratish bo'yicha meyoriy hujjatlar qabul qilish. 2. Marketing xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish. 3. Ulgurji va chakana bozor tizimini rivojlantirish. 4. Tovar birjalari, yarmarkalar, opsiyonlar tizimini yaratish. 5. Yer, investitsiya, kooperativ banklar tizimini yaratish.

⁹ Manba: muallif tomonidan tizimlashtirilgan.



Moddiy-texnik qo'llab-quvvatlash	1. Lizing mexanizmini yo'lga qo'yish. 2. Yangi texnikalar ishlab chiqarish va yangi texnologiyalarni joriy etishda ulushli (hissali) moliyalashtirish. 3. Yangi texnikalarni ishlab chiqarish va foydalanishda imtiyozli kreditlash, soliqqa tortish, tezlashtirilgan amortizatsiya. 4. Kooperativlarni yangi texnikalar olishda qo'llab-quvvatlash.
Tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash	1. Eksportchilarning tashqi bozorga chiqishlari uchun marketing xizmati ko'rsatish, xorijiy investorlarni topish, yangi uskunalar importi. 2. Import qilinuvchi oziq-ovqat tovarlariga boj tariflari, kompensatsiya yig'implari, soliqlar tizimi yordamida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash. 3. Ishlab chiqarish, qo'shma korxonalar yaratish sohasida xorijiy investor uchun qulay sharoit yaratish. 4. Ilg'or texnika va texnologiyalarni import qilishda xorijiy kreditorlar uchun davlat kafolatini taqdim etish. 5. Xalqaro bozorda raqobatbardosh qishloq xo'jaligi tovarlarini eksport qilishda demping siyosati.
Ilmiy jihatdan ta'minlanganlik	1. ASM barqarorligi muammolari bo'yicha fanning asosiy yo'nalishlarini moliyalashtirish. 2. Ilmiy kadrlar yetishtirish sarf-harajatlarini moliyalashtirish. 3. Jahon standartlariga javob beruvchi investitsiyalar asosida texnologiyalar va texnikalar ishlab chiqish sarf-harajatlarini moliyalashtirish. 4. Ilmga oid mahsulotlarga buyurtmalar berishni, texnoparklar, texnoinkubatorlar tashkillashtirishni rag'batlantirish yo'li bilan yangiliklar kiritish bozorini shakllantirishda qo'llab-quvvatlash. 5. Ilmiy-metodik konsultatsiyalarni qisman moliyalashtirish. 6. Qayta ishlab chiqarish barqarorligini ilmiy ta'minlashda tadbirkorlik tuzilmalari tomonidan soliqsiz va imtiyozli mablag' kiritish tizimi.
Kadrlar ta'minoti	1. Tayyorlov darajasi zaruriy standartga yetgunga qadar moliyalashtirib borish yo'li bilan ASM tuzilmaviy bo'linmalarining tadbirkorlari, menejerlari, xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkillashtirish. 2. ASM kadrlarini tegishli jahon standartlari darajasida



tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiruvchi xususiy o'quv muassasalarining ish yuritishlari uchun meyoriy-huquqiy baza yaratish.

Shunday qilib, agrar sohada davlat siyosatining konseptual asosi sifatida, bir tomondan to'lashga qodir ehtiyojga muvofiqlashuvchi erkin narx belgilash tamoyilining deklaratsiyalanishi, boshqa tomondan esa – takliflar narxlarini (bahosini) tartibga solish mexanizmining qo'llanilishi zarur, shu bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli, kafolatlangan garovli va boshqa turdagi narxlar darajasini belgilash yo'li bilan ham qo'llanilish lozim.

Bu yo'nalishda qishloq xo'jaligining u yoki bu tarmoqlari mahsulotlarini rivojlantirishga sarflanadigan davlat xarajatlari ulushi va iqtisodiy o'sish, shuningdek raqobatbardoshlikning oshishi (mavjud iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish sharoitida resurslardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichi sifatida) o'rtasidagi aloqani izlash zarur bo'ladi.

Demak, xulosa qiladigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini rivojlantirish va bozor sharoitida o'zini-o'zi tartibga solish o'zaro ta'sirining quyidagicha qonuniyatini shakllantirish mumkin: agrar sohada mahsulot ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchilarni davlat tomonidan tartibga solinishi kuchaytirilganda va bozorning o'sishi chegaralanganda – talablar yig'indisi takliflar yig'indisi o'sishidan ildamlab o'tib ketadi, buning natijasida esa mahsulotlar tanqisligi (defitsiti) yuzaga keladi va aksincha, bozor sharoitida o'zini-o'zi tartibga solishni kuchaytirilganda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining qo'llab-quvvatlanishi va ishlab chiqarishga davlat ta'sirining chegaralanishida – takliflar yig'indisi talablar yig'indisi o'sishidan oshib ketadi, buning natijasida esa mahsulotlar seroblighi (ortib ketishi) yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Четыркина Н.Ю. Управление конкурентоспособностью организаций сферы услуг.– СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2009.–128 с.
2. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народа. Петрозаводск: Петроком, 1993.
3. Воронов Д.С. Оценка, анализ и выявление путей повышения конкурентоспособности предприятий. Дисс. канд.экон. наук. Екатеринбург – 2002.
4. Портер М. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей и конкурентов / М. Портер. – М. : Альпина БизнесБукс, 2005.

5. Макконел К. Р., Брю С. Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 т. – М.: Республика, 1993.
6. Фатхутдинов Р.А., Конкурентоспособность; экономика, стратегия, управление. - М.: ИНФРА-М, 2000
7. Хорунжий М.И. Аграрная политика: Учеб. пособие. / М.И. Хорунжий - М.: Финансы, 1998. - 240 с.
8. ЗС Шохужаева, НЖ Мамазарова. Эффективность инновационных процессов в сельскохозяйственном развитии. Материалы конференции “Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари”. 2020. стр.329-333.
9. ЗС Шохужаева. Экономическая эффективность использования инновационных ирригационных технологий. Журнал “Экономика и социум”. № 6-2 (73), 2020.стр. 638-642.
10. EA Sabirovich, SZ Safoyevna. Mechanisms for the implementation of a cluster system in ensuring the competitiveness of agricultural products. Asian Journal of Research in Banking and Finance, 2022. №6, стр. 1-9.